



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi



2024-yil 27-mart kuni soat 12:00 da O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida “Statistika agentligi faoliyatining sarhisobi va kelgusidagi vazifalar” mavzusida matbuot anjumani axboroti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-114-sonli qaroriga muvofiq, Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy statistika sifatini ta‘minlash bo‘yicha bazaviy prinsiplarini milliy statistika tizimiga joriy etish maqsadida:

- statistika ma‘lumotlarini xalqaro GSBPM modeli asosida shakllantirilishi yo‘lga qo‘yiladi;

- rasmiy statistikani tayyorlovchilarning har birida rasmiy statistikada sifat va tarqatish siyosatlari ishlab chiqiladi;

- xalqaro ekspertlarni keng jalb etgan holda milliy statistika tizimini global baholashdan o‘tkazish tashkil etiladi.

Shu bilan birga, sohaga autsorsing tizimini joriy etish maqsadida, statistika kuzatuvlarini amalga oshirish jarayoniga konsalting kompaniyalari, oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari jalb etiladi.

Tizimda integratsiya jarayonlari tubdan yaxshilanadi. Jumladan, “Statistika” integrallashgan axborot tizimini 6 ta vazirlik va idoralar axborot tizimlaridagi ma‘lumotlarga hamda “Elektron hukumat” tizimining Idoralararo axborot platformasiga integratsiya qilish yo‘lga qo‘yiladi.

Bundan tashqari, foydalanuvchilarning Statistika agentligi ma‘lumotlaridan qoniqish darajasini aniqlash va oshirib borish maqsadida, agentlik tomonidan “Rasmiy statistika ma‘lumotlariga bo‘lgan ishonch indeksi” uslubiyoti ishlab chiqiladi hamda 2025-yildan boshlab, har yili foydalanuvchilar o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazilib, natijalari e‘lon qilib boriladi.

Shuningdek, rasmiy statistika sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” hamda Statistika agentligining 2024-2025-yillarda erishishi lozim bo‘lgan maqsadli ko‘rsatkichlari (indikatorlari) belgilab qo‘yildi.

Qarorda belgilangan vazifalarning to‘liq va sifatli bajarilishi, statistik ma‘lumotlarning shaffofligi esa xalqaro hamjamiyatning O‘zbekiston statistikasiga bo‘lgan ishonchini yanada oshiradi.

Statistika ishlari dasturiga muvofiq, 2023-yilda jami 3302 ta statistika ishlari belgilangan muddatlarda va to‘liq hajmda, shundan 1830 tasi statistika organlari tomonidan bajarilgan.

Statistika agentligi tomonidan shakllantiriladigan rasmiy statistika ma‘lumotlari yo‘nalishida umumiy hisobda 1439 ta, jumladan:

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va balanslar – 500 ta;

Iqtisodiyot tarmoqlarining ko‘rsatkichlari – 604 ta;

Ijtimoiy sohaning ko‘rsatkichlari – 183 ta;

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri – 152 ta.

Uslubiyatlarni takomillashtirish va sohani muvofiqlashtirish yo‘nalishida 111 ta statistika ishlari bajarilgan.

Shuningdek, 46 ta xalqaro savolnoma bo‘yicha ochiq statistika ma‘lumotlarining almashinuvi ta‘minlangan.

Shu bilan birga, boshqa vazirlik, idora va tashkilotlar tomonidan statistika organlariga rasmiy statistikaning tayyorlash uchun 559 ta ma‘muriy ma‘lumotlar taqdim etilgan.

Bundan tashqari, 913 ta statistika ishlari rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida tayyorlangan va tarqatilgan.

2023-yilda xalqaro tashkilotlarning 49 ta savolnomalari, jumladan, BMT Statistika bo‘limining 10 ta, BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining 5 ta, YUNESKO statistika institutining 9 ta, Xalqaro Mehnat Tashkilotining 2 ta, Xalqaro Elektroaloqa Ittifoqining 2 ta va boshqa xalqaro tashkilotlarning 14 ta savolnomalari to‘ldirildi va taqdim etildi.

Bundan tashqari, 4 ta xalqaro ma‘lumotlar bazalaridagi, xususan, XVJning Kengaytirilgan ma‘lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi doirasida, MDH, “COMTRADE” va “TRANSMONEE” ma‘lumotlar bazalarida O‘zbekistonning statistika ko‘rsatkichlari o‘z vaqtida yangilandi.

Statistika dasturiga muvofiq, bajarilgan ishlar ochiq statistika ma‘lumotlari, axborotnomalar, to‘plamlar, press-relizlar ko‘rinishida hamda ommaviy axborot vositalari, rasmiy veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali muntazam ravishda milliy va xorijiy foydalanuvchilar e‘tiboriga yetkazib berildi.

Jumladan, agentlik rasmiy veb-saytining “Rasmiy statistika” bo‘limida qator statistika yo‘nalishlari bo‘yicha 498 ta statistika ma‘lumotlari to‘plamlari e‘lon qilindi.

Rasmiy statistikaning shakllantirishida statistika organlari tomonidan jami 30 ta tanlanma statistika kuzatuvlari hamda 98 ta statistika hisobotlaridan foydalanildi.